



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDA O'QISH SAVODXONLIGI YO'NALISHIDA MATN BILAN ISHLASH


Imomnazarova O'.O. Qashqadaryo viloyati Pedagogik
mahorat markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi o'zbek
tili fani metodisti



“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Sh. Mirziyoyev


O'qish savodxonligi ta'rfi



O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishi va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishi **uchun matn ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlash va tushunish (munosabat bildirish)** demakdir.


O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishi va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun **yozma matnlardan foydalanishi, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlashi va tushunishi** demakdir.

O'qish savodxonligi inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishi va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari **uchun yozma matn ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish va tushunish** demakdir.



O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni **tushunish**, ulardan **foydalanish**, ular ustida **mulohaza** yuritish hamda ularga **munosabat (baholash)** bildirish qobiliyati demak.

O'qish savodxonligining asosiy komponentlari



Bu komponentlar o'quvchilarning matn bilan ishlashda chuqur fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'qish savodxonligi

Funksional savodxonlikning
asosi

A

shaxsning o'z
maqsadiga erishishi

B

ijtimoiy hayotda ishtirok
etish uchun yozma
matnlarni tushunish

C

bilim va imkoniyatlarini
kengaytirish

D



fikr yuritish va o'qish bilan shug'ullanish qobiliyati

Matn turlari



manbasiga
ko'ra
(bitta, bir
nechta)

turiga ko'ra
(tasvirlash, hikoya
qilish, tushuntirish,
munozara,
yo'riqnoma,
muloqot,
dalolatnoma)

tuzilishiga ko'ra
(yaratuvchi va
yo'naltiruvchi)

shakliga
ko'ra (uzun
(davomli),
qisqa,
aralash)

Uzun matnlar – bu odatiy matnlar jamlanmasi bo'lib, o'z navbatida, sahifalarga taqsimlangan bo'ladi

MATNLARNING
SHAKLI

Qo'shma shakldagi
matnlar turg'un va
harakatli (dinamik)
ko'rinishda bo'lishi
mumkin

Qisqa matnlar ko'p
hollarda bir qancha
varaqlarning jamlanmasi
shaklida beriladi

Aralash matnlar ko'plab o'zgarmas va
dinamik matn shakllaridan iborat.

Matn shakli

Ro'znomalardagi
maqolalar
Insholar
Romanlar
Qisqa hikoyalar
Taqrizlar
Xatlar

**Uzun
matnlar**

Jadval
Grafik
Diagramma
E'lon
Ilova
Ariza
Ro'yxat

**Qisqa
matnlar**

Ma'no jihatidan bir biri
bilan bog'liq bo'lgan
qisqa va uzun matn
shakllaridan iborat
bo'ladi.

**Aralash
matnlar**

Bir- biridan mustaqil
ravishda yaratilgan va
umumiy muammoni
yoritish uchun o'zaro
bog'langan matnlar.
Bunday matnlar ikkita
bir xil shaklli matndan
yoki har xil shaklli
matndan iborat
bo'lishi mumkin.

**Qo'shma
matnlar**

Uzun matnlar

Uzun matnlar
bosqichma-bosqich
tartibda tuzilgan
bo'ladi.

Tartibni bildiruvchi so'zlar
(birinchidan, ikkinchichidan,
uchinchidan) har bir
bo'limning bir-biri va butun
matn bilan o'zaro qanday
bog'langanini ko'rsatadi

Sabab bog'lovchilari
("shuning uchun," "shu
sababli", "binobarin" va
hakazo) matn qismari
o'rtasida sabab-natija
munosabatlarini
ko'rsatadi.

Qisqa matnlar

Ma'lum bir tartibda bo'ladi.


Jadvallar




Diagrammalar



Ilovalar



Grafiklar



Turlicha o'qish usullarini
talab etadi



Aralash matnlar

Ko'plab o'zgarmas va dinamik matnlar – yagona, bir-biri bilan ma'no jihatidan bog'liq bo'lgan qisqa va uzun matn shakllaridan iborat bo'lganligi uchun **aralash matnlar** deyiladi.



Qo'shma matnlar



Bir- biridan mustaqil ravishda yaratilgan va umumiy muammoni yoritish uchun o'zaro bog'langan matnlar **qo'shma matnlar** deyiladi. Bunday matnlar ikkita bir xil shaklli matndan yoki har xil shaklli matndan iborat bo'lishi mumkin.

O'qish savodxonligining asosiy ko'nikmalari



Axborotni
izlash va
topish

Matn mazmunini
tushunish va
baholash

Axborotni yaxlit
holga keltirish va
izohlash

Matndan
ma'lumotlarni
topish

Har tomonlama rivojlangan o'quvchi ikki guruh ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

To'liq matnga asoslangan ko'nikmalar:

- matndan aniq shaklda keltirilgan ma'lumotlarni topish;
- matn asosida oddiy xulosalar chiqarish.



- ❖ O'qiganlari bo'yicha o'z mulohazalariga asoslangan ko'nikmalar:
- ❖ bevosita muallif tomonidan ifodalanmagan aloqalarni o'rnatish;
- ❖ matnning umumiy g'oyasi bilan bog'liq holda ularni sharhlash;
- ❖ nafaqat matndagi ma'lumotlarga, balki matnning badiiy elementlariga tayangan holda muallif niyatini qayta tushunish.

Matnni tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'ladi:



til kodlari

predmetli

sujetli-kompozitsion

obrazli-madaniy

kommunikativ

estetik

O'qish savodxonligini rivojlantiruvchi omillar bo'yicha takliflar

* Internet muhitidagi ko'p ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish orqali

* O'quvchilarning berilgan matnning qaysi biri eng ishonchli, aniq, mavzuga mos keladigan va muhim ekanligi yuzasidan qaror qabul qilishini o'rgatish orqali

* O'quvchilarning matndagi ma'lumotning ishonchliligi va sifatini, ya'ni ma'lumot yaroqli, yangi, to'g'ri va bir yoqlama emasligini aniqlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish

* O'quvchilarni mulohaza yuritish va matndan tashqari fikrlash orqali berilgan ma'lumotni bog'lay olish ko'nikmalarini rivojlantirish

* O'quvchilarda kompyuter bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish


* Uyga vazifa va mustaqil bajarishi uchun turli xil elektron, rasmi manbalar va axborot matnlaridan ko'proq foydalanish

* O'quvchilarni bitta matnni o'qiganda emas, balki bir necha ma'lumotni o'qiganda ham ma'lumotlarni tanlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish

* Jadvallar, matn bo'limlari yoki butun kitoblardan ma'lumotlarni qidirish

* Dars, darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda muayyan mavzularga oid PISA topshiriqlarini tahlil qilish orqali

O'qish savodxonligi sizdan nimalarni talab qiladi?






O'qish savodxonligi nafaqat
matnni o'qish va tushunishni,
balki uni **TANQIDIY TAHLIL**
qilishni ham talab qiladi



Matn:

Gripp kasalligi har yili millionlab odamlarga ta'sir qiladi. Sog'liqni saqlash tashkilotlari grippni oldini olish uchun emlashni tavsiya etadi. Emlash bilan himoyalanih, ayniqsa, keksalar va surunkali kasalligi bor odamlarda samarali bo'lishi mumkin. Ammo, emlash har doim ham 100% himoya bermaydi, chunki gripp virusining turlari tez o'zgaradi.



Savol:

Sizning sinfingizda o'quvchilar orasida grippga qarshi emlash haqida turli xil fikrlar mavjud. Ba'zilar emlashning foydasini anglab yetmayapti. Sinfingizdagi o'quvchilarga emlashning foydasi haqida tushuntirish berish uchun qanday asosiy fikrlarni keltirgan bo'lardingiz? Matnda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, kamida ikkita asosiy dalilni yozing.



Namunaviy javob:

1. Grippga qarshi emlash ko'p odamlarda kasallikni oldini olishga yordam beradi, ayniqsa, keksalar va surunkali kasalligi bor odamlarda.
2. Virus turlari o'zgarishi sababli emlash 100% samarali bo'lmasa ham, u jiddiy kasallik xavfini kamaytiradi.

Tahlil:

Bu savol o'quvchidan matndagi ma'lumotni tushunishni, undan foydalangan holda dalillar keltirishni va real hayotda emlashning ahamiyatini tushuntirishni talab qiladi. Shu tariqa, o'quvchi o'z bilimini amalda qo'llash qobiliyatini namoyon etadi.

PISA topshiriqlaridan namuna



Eng aqlli qush 1/4

Topshiriq 4 ta savoldan iborat

(I-qism)

(1) Qarg'alar, odatda, qishloqlarda guruhlar bo'lib yashashlaridan ko'pchigimiz xabardormiz. (2) Bizning qishlog'imizga ham boshqa joydan uchib kelgan qarg'alarga nisbatan mahalliy aholi norozilik kayfiyatini bildirishadi, chunki ular baland ovozda shovqin ko'tarishadi. (3) Notanish qarg'alar vaqt o'tishi bilan qanday shovqin bilan kelishgan bo'lsa, shunday shovqin bilan qishlog'imizdan chiqib ketishdi. (4) Odatda guruh bo'lib yashaydigan qarg'alar yomg'irli kunlarda umumiy jamoaga birlashishiga to'g'ri keldi. (5) Umuman olganda, bu g'alati qushlar, bir-birlarini yoqtirmagandek tuyuldi. (6) Chunki, ko'pincha bir qarg'a o'ljasini boshqa biri burun ostidan ilib olib, uzoqqa uchib ketardi.

(7) Qarg'alar o'zlarining imkoniyatlarini yaxshi bilishadi. (8) Men sherigimning chodirida yog'ochdan ishlangan miltiq modelini topib oldim. (9) Haqiqiy qurol bilan chiqqan vaqtimda, qarg'alar ulardan birining ikki marta ogohlantirganidan so'ng, uzoqqa uchib ketishganiga guvoh bo'lganman. (10) Xayolimga qiziq fikr keldi, tajriba uchun miltiq maketini oldib ko'chaga chiqdim. (11) Ajab, qarg'alarning hech biri uchib ketishni xayoliga ham keltirmadi. (12) Men bu tajribani ikki marta takrorladim va, nihoyat, qishloqdagi eng ayyor va aqlli qush qarg'a ekanligiga amin bo'ldim. (13) Men qarg'alar hech qachon kichik bolalardan qo'rqmasligini, ular tosh otishga qodir emasligini ham payqadim.

(V. Belov)

(II-qism)

Bir qator tajribalar davomida zoologlar qaysi qush eng aqlli ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'lishdi. Qarg'a ushbu toifada mutlaq yetakchi bo'ldi, chunki uning intellektual qobiliyatlari boshqa qanotlilarga nisbatan eng yuqori darajasidan ham oshib ketdi. Tadqiqotchilarning tushuntirishicha, qush 3-4 yoshli bolaning qo'lidan kelmaydigan muammolarni hal qilishga qodir. Bundan tashqari, eng oddiy vazifalarni hal qilish ko'nikmalari bo'yicha qarg'a nafaqat o'ziga xos vakillarni ortda qoldirdi, balki dunyodagi eng aqlli hayvonlar reytingida yetakchi o'rinni egallaydi.

Shunday qilib, qarg'a quyidagi tajribada o'zining qobiliyatlarini namoyon etdi. Unga suv solingan idish berildi, uning yuzasida oziq-ovqat bo'laklari suzardi. U tumshug'i bilan ularga yeta olmadi. Yaqin atrofdagi har xil turdagi va og'irlikdagi toshlar yotqizilgan. Biroz vaqt o'tgach, qarg'a ovqat olishga urinib ko'rdi - u eng og'ir toshlarni idishga solib ovqat olishning muqobil usulini o'ylab topdi. Idishga toshlar solingach, oziq-ovqatlar suv yuzasiga ko'tarilib, qarg'a uchun qulay imkoniyat paydo bo'ldi. Shunday qilib, qarg'a atrofdagi turli xil obyektlar: qum, suv, havo va boshqa unsurlarning shakli va og'irligini baholay olishini aniqlangan edi. Ular ranglar va tahdidlarni ham yaxshi ajratadilar, masalan, inson qo'lidagi qurolni yoki biror idish va paketdan qanday qilib yemishni qanday olish kerakligini biladilar.

1) 1

2) 4

Topshiriq № 1

I matnda berilgan jumladan
qaysi biri matnning asosiy
g'oyasidir?

Mantiqiy javob bering.

3) 12

4) 13



Topshiriq tasnifi

Mazmun jihatdan baholash ko‘lami: yuqori ilmiy salohiyat va kashf etish

Baholash ko‘lamining kompetentligi: berilgan axborotlar ustida ishlash va aloqadorlik

Kontekst: axborot matni

Matn turi: tarkibli

Topshiriqning qiyinlik darajasi: o‘rtacha

Javob shakli: faqat bitta to‘g‘ri javobni belgilash

Topshiriq №2

I matnda nima yoritilmagan? Javob variantining raqamini belgilang.

1) qarg'alar qishloqda ma'lum guruhlarda yashagan;

2) bu qushlar bir-birini yoqtirmasdi;

3) ular hech qachon bir-biridan ovqat olmadilar;

4) qarg'alar tosh otishga qodir bo'lmagan bolalardan qo'rqmagan.



Topshiriq tasnifi

Mazmun jihatdan baholash ko‘lami: yuqori ilmiy salohiyat va kashf etish

Baholash ko‘laming kompetentligi: berilgan axborotlar ustida ishlash va aloqadorlik

Kontekst: axborot matni


Matn turi: tarkibli

Topshiriqning qiyinlik darajasi: o‘rtacha


Javob shakli: faqat bitta to‘g‘ri javobni belgilash

Topshiriq №3

Matnning ikkinchi xatboshidan muallifga qushlarning bir-biriga dushmanligini ifodalashga yordam beradigan 1 ta soʻzni yozing



Javob shakli: matndan kerakli ma'lumotni belgilash



Yuqori ball: 1 ball

Baholash mezoni

ball

1

Chunki, ko'pincha bir qarg'a o'ljasini
boshqa biri burun ostidan ilib olib,
uzoqqa uchib ketardi.

0

boshqa javob tanlangan yoki javob
berilmagan bo'lsa

Topshiriq №4

Rasmlarga diqqat bilan qarang.

Barcha fotosuratlar 1-2 matnlarda keltirilgan qargʻalar tasvirlariga mos keladimi?

Mantiqiy javob bering.



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



Topshiriq tasnifi

Mazmun jihatdan baholash ko‘lami: yuqori ilmiy salohiyat va kashf etish

Baholash ko‘lamining kompetentligi:berilgan axborotlar ustida ishlash va aloqadorlik

Kontekst: axborot matni

Matn turi: tarkibli

Topshiriqning qiyinlik darajasi: o‘rtacha

Javob shakli: Bir nechta to‘g‘ri javobni belgilash. Yuqori ball: **2 ball**


Baholash mezonl

1- 2-3- rasm
tanlangan
bo'lsa
2 ball

1 va 2, 1 va 3 yoki
2 va 3
yoki ularning
bittasi tanlangan
bo'lsa 1 ball

boshqa javob tanlangan
yoki javob
berilmagan
bo'lsa
0 ball

Tavsiyalar



A bright sun in a blue sky with dandelions and a seed blowing away.

**E'tiboringiz uchun
rahmat!**